

# **O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi Allamuratov Janabay vafot etdi**

Image not found or type unknown

Allamuratov Janabay 1937 yil 4 mayda Shumanay tumanida tug'ilgan. 1960 yilda O'rta Osiyo politexnika institutini tamomlagan. Mehnat faoliyatini 1960-1961 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qoshidagi jamoa xo'jaliklarda qishloq qurilishi boshqarmasi texnika yordami byurosining katta muxandisi va bosh muxandisi bo'lib ishlashdan boshlagan.

1961-1964 yillarda 166-sonli qurilish tresti 1-sonli qurilish boshqarmasining qurilish ustasi, 1964-1968 yillarda 166-sonli qurilish tresti prorabi, katta prorabi, bo'lim boshlig'i, 1968-1970 yillarda 166-sonli qurilish tresti 91-sonli KMK-si boshlig'i, 2-sonli qurilish boshqarmasi boshlig'i sifatida faoliyat ko'rsatgan.

1970 yilda "O'ztransmaxsusqurilish" tresti 129-sonli KMK-si boshlig'i, 1970-1973 yillarda Qoraqalpog'iston viloyat partiya qo'mitasi instruktoriga bo'lgan.

1973 yildan 2003 yilga qadar "Qoraqalpoqqaz" respublika boshqarmasi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritgan.

Allamuratov Janabay 1979 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan quruvchi, 2000 yilda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi davlat mukofatlari bilan shuningdek, birinchi darajali «Mehnat faxriysi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Allamuratov Janabay o'zining qariyb 60 yillik mehnat faoliyati davomida o'zining boy bilim va tajribasi, manaviy fazilatlarini bilan xalqimiz va Vatanimizga xizmat qildi. Xalqimizning suyukli farzandi, samimiy va fidoyi inson Allamuratov Janabayning oila a'zolariga, yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiramiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi